SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.Gr.09.11 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA TUZILGAN BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

POYANOV JAVLONBEK SHODMON O‘G‘LI

SUG‘ORILADIGAN HUDUDLARNING LANDSHAFT-EKOLOGIK HOLATI VA ULARNI BAHOLASH (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)

11.00.05 – Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish

GEOGRAFIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Samarqand – 2026

UO‘K: 91:551.4 (575.152)

Geografiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по географическим наукам

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on geographical sciences

Poyanov Javlonbek Shodmon o‘g‘li
Sug‘oriladigan hududlarning landshaft - ekologik holati va ularni baholash (Qashqadaryo viloyati misolida)..... 3

Поянов Жавлонбек Шодмон угли
Ландшафтно-экологическое состояние орошаемых территорий и их оценка (на примере Кашкадарьинской области). 21

Poyanov Javlonbek Shodmon ugli
Landscape-ecological condition of irrigated areas and their assessment (case study of Kashkadaryo region)” 41

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works 45

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.Gr.09.11 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA TUZILGAN BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

POYANOV JAVLONBEK SHODMON O‘G‘LI

SUG‘ORILADIGAN HUDUDLARNING LANDSHAFT-EKOLOGIK HOLATI VA ULARNI BAHOLASH (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)

11.00.05 – Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish

GEOGRAFIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Samarqand – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida 2025.3.PhD/Gr363 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Qarshi davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.samdu.uz) va «Ziyonet» axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Nazarov Maqsudjon Geldiyorovich** geografiya fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent
Rasmiy opponentlar:	**Yarashev Quvondiq Safarovich** geografiya fanlari doktori (DSc), professor
	Aripov Islomjon Kaxramonovich geografiya fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Buxoro davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.Gr.09.11 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil 6 noyabr soat 14^{00} dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (95) 410-20-10, faks: (0366) 239-19-36; E-mail: ik-geografiya2019@mail.ru).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 108 raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (+99866) 233-60-87.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil 26-oktabr kuni tarqatildi.
(2026-yil 16-oktabrdagi 1-raqamli reestr bayonnomasi).

S.B. Abbasov
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
Ilmiy kengash raisi, g.f.d., professor

B.A. Meliyev
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
Ilmiy kengash ilmiy kotibi, g.f.f.d. PhD, dotsent

M.R. Usmonov
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
g.f.d (DSc), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon aholisining asosiy qismini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlab kelayotgan sug‘oriladigan maydonlardan intensiv tarzda foydalanilayotganligi sababli ushbu hududlarda tuproq mahsuldorligining kamayishi, tuproq yuvilishi, sizot suvlari sathining ko‘tarilishi, yer osti suvlari minerallashuvi, sho‘rlanish va boshqa bir qator ekologik muammolarning ko‘lami ortmoqda. Ushbu muammolarga qarshi kurashishda xalqaro tashkilotlar tomonidan keng miqyosda e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2030-yilgacha barqaror rivojlanish bo‘yicha dasturida 17 ta maqsad belgilangan bo‘lib, shu maqsadlarning 15-maqsadi “Sug‘oriladigan hududlardagi ekosistemalarni muhofaza etish, tiklash, cho‘llashishga qarshi kurashish, ekologik shart-sharoitlarni yaxshilash, haydaladigan yerlarning degradatsiyasini etish[1]” vazifalarini hal etishga qaratilgan.

Hozirgi vaqtda jahon miqyosida sug‘oriladigan yerlarning ekologik holati keskinlashib borayotganligi ushbu turdagi geotizimlarning alohida xususiyatlarini inobatga olgan holda, sug‘oriladigan yerlarning ekologik holati yomonlashuviga sabab bo‘ladigan omillarni aniqlash va tahlil etish, hosildorligi kamaygan yoki qiymatini yo‘qotgan yerlarning mahsuldorligini oshirish, ushbu turdagi yerlardan samarali foydalanishning ilmiy asoslarini ishlab chiqishni talab etmoqda. Sug‘oriladigan hududlarning landshaft-ekologik holatini yaxshilash maqsadida suv va yer resurslaridan foydalanishda zamonaviy ilg‘or texnologiyalar va usullarni qo‘llash, tuproq degradatsiyasining oldini olish, sug‘orish suvlarining sifatini oshirish va ifloslanish darajasini kamaytirish, vujudga kelgan tabiiy-antropogen jarayonlarning yuzaga kelish sabablarini aniqlash, ekologik holatni yaxshilash uchun zarur taklif va tavsiyalar ishlab chiqish hozirgi kunda dolzarb masala hisoblanadi.

O‘zbekistonda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish tadbirlari mustaqillikka erishilganidan so‘ng jadal rivojlandi. Jumladan, mamlakatimiz aholisining asosiy qismi yashaydigan hamda oziq-ovqat mahsulotlarining aksariyat turlari bilan ta’minlayotgan sug‘oriladigan yerlarning ekologik holatini nazorat qilish, monitoring olib borish, tuproq sho‘rlanishi, sizot suvlari sathi va minerallashuvining ortishi, tuproq eroziyasi, sug‘orish suvlari minerallashuvining ortishi va tuproq mahsuldorligining kamayishi kabi jarayonlarni kuzatish, shuningdek, kimyoviy ifloslanishga sabab bo‘layotgan mineral o‘g‘itlar va zararli pestitsidlardan foydalanishni tartibga solish bo‘yicha keng ko‘lamli tadbirlar amalga oshirilmoqda va sezilarli yutuqlarga erishilmoqda. Xususan, “2022 - 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”ning 30-maqsadida: “Tuproq unumdorligini oshirish va muhofaza qilish” hamda “O‘zbekiston — 2030” strategiyasining” 66-maqsadi: “Respublikada ekologik vaziyatni tubdan yaxshilash, inson hayotiga ta’sir o‘tkazuvchi ekologik muammolarni bartaraf etish”, 70-maqsadi: “Iqlim o‘zgarishi salbiy ta’sirining oldini olish”, 73-maqsadi: “Atmosfera havosi ifloslanishining oldini olish, uning

[1] Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2030-yilgacha barqaror rivojlanish bo’yicha dasturi https://sdgs.un.org/goals

tabiiy tarkibini saqlash bo‘yicha keskin choralar ko‘rish” kabi muhim vazifalar belgilab olingan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 10-iyunidagi PQ-277-son “Yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 2-fevraldagi 50-son “Yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashish tadbirlarini monitoring qilish, baholash va hisobot shakllarini ishlab chiqish hamda ularning natijalarini chop etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori hamda ushbu sohaga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VIII. «Yer haqidagi fanlar», V. «Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Sug‘oriladigan hududlarning landshaft-ekologik holati, voha landshaftlarning ekomeliorativ holatiga bag‘ishlangan tadqiqotlarni xorijiy olimlardan E. Neef, K. Troll, Z. Passarge, A.Tensli, G. Xaaze, Ya. Demek, P.G. Risser, R. Forman, M. Gordon, D. Xarvey, R.Yu. Odum, E. Bernard, H.N. Houeroy, J.A. Mabbutt, MDH olimlaridan L.S. Berg, F.N. Milkov, M.I. Lopyrev, L.I. Kurakova, Ye.V. Milanova, F.N. Chalidze, V.N.Solnetsev, V.B. Sochava, T.V. Zvonkova, D.L. Armand, A.Yu. Retyum, V.S.Preobrajenskiy, N.A. Gvozdetskiy, K.N. D’yankov, V.I. Kiryushin, V.A.Chernikova, V.A. Nikoloyev, A.G. Isachenko, B.I. Kochurov, M.D.Grodzinskiy, respublikamiz olimlaridan L.N. Babushkin, N.A. Kogay, A.Saidov, A.A. Abdulqosimov, A.A. Rafiqov, A. Rahmatullayev, S.B. Abbasov, X.Vahobov, S.I. Abdullayev, A.N. Xodjimatov, A.K. Urazbayev, K.M.Boymirzayev, V.A. Rafiqov, Y.I. Ahmadaliyev, A.N. Nig‘matov, O.Sh. Ro‘ziqulova, O.M. Qo‘ziboyeva, O.Yu.Poslavskaya, S.A. Nishonov, M.F. Rasulov, I.A. Hasanov, L. Alibekov, A.Mamatov, P. Baratov, I. Jankabilov, R. Usmonova, S.I. Abdullayev, Q.S.Yarashev, M.G. Nazarov, N.R. Alimkulov, F.M. Xushmurodov, R.X. Allayarov, T.B. Yaqubov, L.T. Ibragimov va boshqa olimlar mamlakatimizda ushbu masalalarida o‘z ilmiy tadqiqotlarini amalga oshirishgan. Biroq shu paytgacha bajarilgan tadqiqotlarda viloyat sug‘oriladigan hududlarining landshaftlarining ekologik jihati o‘rganilmagan, tuproq va yerosti suvlarining sho‘rlanish holati, yerusti suvlarining ifloslanishi va landshaft-ekologik sharoiti baholanmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Qarshi davlat universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasining “Janubiy O‘zbekiston tabiatidan foydalanishning geografik-ekologik jihatlari” mavzusidagi ilmiy tadqiqotlar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Qashqadaryo viloyati sug‘oriladigan yerlarining bir-butun geotizim sifatida landshaft-ekologik yondashuv asosida ularni tipologik

turlarga ajratish, shuningdek ushbu hududlarni landshaft-ekologik baholash hamda holatini yaxshilashning ilmiy va amaliy asoslarini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

viloyat sug‘oriladigan hududlaridagi ekologik holatning shakllanishida iqlimiy, gidrologik, tuproq va o‘simlik holatining rolini aniqlashda masofaviy zondlash metodlaridan foydalanish;

sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini aniqlashda “Viloyat sug‘oriladigan hududlar landshaftlarining sizot suvlari sathi va minerallashuvi” hamda “Viloyat sug‘oriladigan hududlar landshaftlarining sho‘rlanish holati” kartalarni yaratish;

sug‘oriladigan yerlarni sug‘orish suv resurslarning shakllanishida qo‘shni daryo havzalaridan olinayotgan suv resurslari orasidagi korrelyatsion bog‘liqlikni o‘rganish;

viloyatda suvdan foydalanishda yuz berayotgan o‘zgarishlar oqibatida Qashqadaryo viloyati sug‘oriladigan hududlar landshaftlarida yuzaga kelgan suv-tuz almashinish jarayonlarining xususiyatlari, uni shakllantiruvchi asosiy omillarini nazariy jihatdan tadqiq etish;

sug‘oriladigan hududlar landshaftlarini ekologik jihatdan baholash va kartasini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Qashqadaryo viloyati sug‘oriladigan hududlari hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti Qashqadaryo viloyati sug‘oriladigan yerlarining ekologik holati va unga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar tanlab olingan.

Tadqiqotning usullari. Ushbu tadqiqot ishining maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda kartografik, laboratoriya, tizimli tahlil, matematik-statistik tahlil, dala-tadqiqot, tayanch eksperimental, geografik qiyoslash, masofadan zondlash, baholash kabi bir qator tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Qashqadaryo viloyati sug‘oriladigan hududlarining o‘zlashtirilishi 6 ta tarixiy-genetik bosqichlarga ajratilgan va har bir bosqichda vujudga kelgan ekologik shart-sharoitlar aniqlangan;

sug‘oriladigan yerlarning meliorativ-ekologik holatini ko‘rsatuvchi masshtabi 1:1140 000 bo‘lgan “Qashqadaryo viloyat sug‘oriladigan hududlar landshaftlarining sizot suvlari sathi va minerallashuvi” hamda “Qashqadaryo viloyat sug‘oriladigan hududlar landshaftlarining sho‘rlanish holati” va “Qashqadaryo viloyati sug‘oriladigan hududlarining landshaft-ekologik holatini baholash kartasi” ArcGIS dasturidan foydalangan holda yaratilgan;

viloyat sug‘oriladigan hududlar ekologik holatiga ta’sir etuvchi asosiy omillar (o‘rtacha harorat, yog‘ingarchilik miqdori, yillik suv resurslar hajmi ming m^3, kollektorlarning o‘rtacha suv sarfi, kollektor suvlar hajmi ming m^3, kollektor suvlar mineralizatsiyasi g/l, suv-tuz balansining 2001-2024 yillardagi holati) o‘zgarishining korrelyatsion aloqadorligi aniqlangan;

sug‘oriladigan hududlar landshaftlari alohida bir-butun geotizim sifatida qabul qilindi va 12 ta landshaft turlari ajratilgan hamda ularning landshaft-ekologik holati baholangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat**:**

sug‘oriladigan yerlarning ekologik holati shakllanishida viloyatning yirik sanoat shaharlari atmosferasining ifloslanishi, yer usti va osti suvlarining ekologik holati kabi omillar asoslanilgan;

sug‘oriladigan hududlar landshafti tuproqlarining mexanik tarkibi, gumus bilan ta’minlanishi va sho‘rlanish darajalari eksperimental aniqlangan;

viloyat sug‘oriladigan maydonlarining sizot suvlari sathi va minerallashuvi va tuproq sho‘rlanish darajalarini aks ettiruvchi kartalar tuzilgan va Qashqadaryo viloyati suv xo'jaligi boshqarmasi tamonidan foydalanilgan;

sug‘oriladigan hududlar landshaftlari ekologik holatining shakllanishida meliorativ holat yetakchi rol o‘ynashi asoslandi hamda meliorativ holatning shakllanish qonuniyatlari aniqlangan;

viloyat sug‘oriladigan hududlardagi landshaftlar tasniflandi va ekologik jihatdan baholanish natijasida har bir landshaft tiplari uchun alohida ekologik holatni yaxshilash uchun taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiya tadqiqot natijalarining ishonchliligi O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasi huzuridagi Gidrometeorologiya xizmati agentligligi, Qashqadaryo viloyati gidrometeorologiya boshqarmasi, Suv xo‘jaligi vazirligi, Amu-Qarshi Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi meliorativ ekspeditsiyasi ma’lumotlaridan foydalanilganligi, Qashqadaryo viloyati ekologiya va atrof-muhitni muhafaza qilish boshqarmasi, Qashqadaryo viloyati Gidrogeologiya boshqarmasi, Landsat-5, 8, 9 va Sentinel-2 kosmik tizimlarining ma’lumotlar ba’zasi, yaratilgan kartalarni amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati sug‘oriladigan hududlarning ekologik holartini baholashda meliorativ tahlillarga asoslangan holda amalga oshirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Qashqadaryo viloyati landshaftlari bo‘yicha tuzilgan barcha kartalar, berilgan xulosalar, taklif va tavsiyalar viloyatning suv-yer resurslaridan samarali, oqilona foydalanishda, muhofaza etishda, tuproqlar sho‘rlanishini kamaytirishda, sug‘orish uchun suv resurslaridan unumli foydalanish bo‘yicha loyihalarni bajarishda, hududning ekologik holatini yaxshilash bo‘yicha xulosalar berish bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qashqadaryo viloyati sug‘oriladigan hududlar landshaft-ekologik holatini baholash, tahlil etish va yaxshilash bo’yicha olingan ilmiy xulosalar quyidagi natijalarni berdi:

Qashqadaryo viloyati sug‘oriladigan hududlarning o‘zlashtirilish tarixi natijasida 6 ta tarixiy-genetik bosqichlarga ajratildi va har bir bosqichda vujudga kelgan ekologik shart-sharoitlar aniqlangan. Hozirgi kunda ushbu natijalardan yerlardan foydalishda, ekologik muammolarining oldini olishda muhim ilmiy xulosa sifatida O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi faoliyatida amaliyotga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligining 2025 - yil "02" - dekabrdagi 04/20-6351-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, sug‘oriladigan yerlarning o‘zlashtirish vaqtiga qarab ularning ekologik barqarorligi

oshib borishi, dastlab o‘zlashtirilgan hududlarning ekologik holati, yangidan o‘zlashtirilgan hududlarga qaraganda yaxshiroq ekanligini aniqlash imkonini berdi;

sug‘oriladigan yerlarning meliorativ-ekologik holatini tadqiq etish uchun ilk bor ArcGIS dasturidan foydalanilgan holda masshtabi 1:1 140 000 bo‘lgan “Viloyat sug‘oriladigan hududlar landshaftlarining sizot suvlari sathi va minerallashuvi” hamda “Viloyat sug’oriladigan hududlar landshaftlarining sho‘rlanish holati” va “Qashqadaryo viloyati sug‘oriladigan hududlar landshaft-ekologik holatini baholash” kartasidan kartalari O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi faoliyatida amaliyotga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligining 2025 - yil "02" - dekabrdagi 04/20-6351-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, viloyat sug‘oriladigan yerlarining meliorativ-ekologik holatining asosiy elementi hisoblangan sizot suvlari sathi, minerallashuvi va sug‘oriladigan tuproqlarning sho‘rlanishi, landshaftlarning ekologik holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan omillarni baholash imkoniyati yaratildi;

viloyat sug‘oriladigan hududlar ekologik holatiga ta’sir etuvchi asosiy omillar (o‘rtacha harorat, yog‘ingarchilik miqdori, yillik suv resurslar hajmi ming m^3, kollektorlarning o‘rtacha suv sarfi, kollektor suvlar hajmi ming m^3, kollektor suvlar mineralizatsiyasi g/l, suv-tuz balansining 2001-2024 yillardagi holati) o‘zgarishining korrelyatsion aloqadorligi aniqlangan. Ushbu olib borilgan hisob-kitob natijalari O‘zbekiston Respublikasi Ekologik partiyasi faoliyatida amaliyotga joriy etilgan. (O‘zbekiston Respublikasi Ekologik partiyasining 2026 - yil "25" - maydagi 02/286-sonli ma’lumotnomasi) Natijada, viloyat sug‘oriladigan yerlarining ekologik holatiga ta’sir etuvchi elementlar orasidagi bog‘liqlik darajasini baholash imkoniyati berildi;

sug‘oriladigan hududlar landshaftlari alohida bir-butun geotizim sifatida qabul qilindi va 12 ta landshaft turlari ajratilgan hamda ularning landshaft-ekologik holati baholangan. Ushbu landshaftlarning ekologik holatini baholash ishlari O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi faoliyatida amaliyotga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligining 2025 - yil "02" - dekabrdagi 04/20-6351-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, sug‘oriladigan yerlarni alohida bir-butun tizim ekanligi, undagi landshaft turlarini ekologik jihatdan baholash imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqotning asosiy natijalari 12 ta xalqaro va respublika konferensiyasi, ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Natijalarning e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 21 ta ilmiy ish, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, shundan 5 tasi respublika, 2 ta xorijiy jurnallarda, 12 ta xalqaro va respublika konferensiyalarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish qismi, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 166 bet bo‘lib, shundan matn qismi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida olib borilgan tadqiqot ishining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, dissertatsiya mavzusi bo‘yicha muammoning o‘rganilganlik darajasi, mavzuning dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy rejalari bilan bog‘liqligi, dissertatsiyaning maqsadi va vazifalari, tadqiqot obyekti va predmeti, tadqiq etish metodologiyasi va metodlari, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, himoyaga olib chiqilgan ishning ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilingani, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tarkibiy tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Sug‘oriladigan hududlardagi landshaft-ekologik holatini tadqiq etishning nazariy-uslubiy masalalari”** deb nomlangan. Unda sug‘oriladigan hudud landshaftlari antropogen landshaftlarning alohida bir turi sifatida qayd etildi, landshaft-ekologik holat tushunchasiga berilgan olimlarning qarashlari tahlili asosida, landshaft-ekologik holatni tadqiq etishning muhim masalalari yoritilgan.

Qashqadaryo viloyati hududi qadimdan inson faoliyatining turli xil omillar ta’sirida bo‘lganligi boisi bu hududda hozirgi paytda barcha turdagi antropogen landshaftlarni uchratish mumkin. Qashqadaryo vohasi doirasida o‘tkazilgan arxeologik tadqiqotlar bu hududdagi antropogen landshaftlarning ancha qadimiyligidan dalolat beradi. Bu hududda qadimiy aholi manzilgohlari, lalmikor va obikor dehqonchilik bilan bog‘liq bo‘lgan seliteb landshaftlar va sug‘oriladigan voha landshaftlari keng miqyosda tarqalgan. Viloyatning sug‘oriladigan hudud landshaftlari vujudga kelish bosqichlari, ularda shakllangan ekologik muamolar 6 ta tarixiy-genetik bosqichlarga ajratilgan:

1. Tabiiy landshaftlarning hukmronlik davri. Bu davr quyi Pleystotsen davridan o‘rta Golotsen davrni qamrab oladi. Ushbu davrlarning tabiiy sharoitlari paleogeografik va tarixiy geografik tadqiqotlarga ko‘ra hozirgidan anchagina farq qilgan. Ushbu davrga tegishli bo‘lgan arxeologik materiallar o‘sha vaqtda odamlar asosan chorvachilik va dehqonchilik bilan shug‘ullanishganligi oydinlashadi. Bu davrda voha hududini o‘zlashtirish sun’iy sug‘orishni rivojlantirish yo‘li bilan borgan.

2. Voha landshaftlarining shakllanishi uchun zarur shart-sharoitlarning vujudga kelishi davri. Bu davr yuqori Golotsen davridan o‘rta asrlar boshigacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Turonning miloddan avvalgi VI–IV asrlar iqtisodiy hayotining asosi dehqonchilik bilan bog‘liq bo‘lgan. Aholi shu vaqtgacha o‘z dalalarini sug‘orish uchun asosan katta-kichik soylardan chiqarilgan ariqlar va buloqlar suvidan foydalanib kelingan.

3. Tipologik voha landshaftlarining shakllanishi davri. Ushbu davrga to‘liq holda O‘rta asrlar davri kiradi, ya’ni V–XVI asrlar. Havzaning yuqori qismida va Kitob–Shahrisabz vohadagi dastlabki dehqonchilik manzillari shakllandi hamda sholi va paxta ekish yo‘lga qo‘yildi. Shuningdek, havzaning dasht yaylovlarida esa lalmikor dehqonchilik va chorvachilik an’analari rivojlangan.

4. Yangi voha landshaftlarining paydo bo‘lishining dastlabki davri. Ushbu davrga XVII asr boshidan XX asrning 40-yillarigacha bo‘lgan vaqt oralig‘i mansub. Qarshi vohasida 1614–1615-yillarda Qashqadaryodan Qarshi cho‘liga ariq qazib chiqarilgan.

5. Neovoha landshaftlarining shakllanishi va salbiy geoekologik vaziyatning vujudga kelish davri. Bu davrga XX asrning 40–90-yillari oralig‘ida yarim asrlik vaqtni qamrab oladi. Bu bosqichga kelganda butun ittifoq miqyosida yangi yerlarni o‘zlashtirishga kirishildi. Xususan, viloyatning yangi o‘zlashtirilmagan hududlari ham e’tibordan chetda qolmadi.

6. Voha landshaftlarning meliorativ holatning ijobiy tomonga qarab o‘zgarishi va artezian suvlari bilan o‘zlashtirilgan voha landshaftlarining shakllanishi davri. Ushbu bosqich mustaqillikdan to hozirgacha bo‘lgan vaqtni o‘z ichiga oladi va hozir ham davom etmoqda. Bu bosqichda viloyat voha landshaftlarining maydoni 1990-yilga qaraganda 27,5 ming gektarga kengaydi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**Qashqadaryo viloyati sug‘oriladigan agrolandshaftlari va ularning ekologik holati**” deb nomlangan. Unda Qashqadaryo viloyati iqlim va suv resurslarining geografik-ekologik shart-sharoiti, viloyat suv resurslarining shakllanishi, hajmi, undan foydalanish jihatlari, viloyat suv resurslarining qo‘shni daryo havzalari bilan bog‘liqligini empirik korrelyatsion aloqadorligi, sug‘orishning tuproq, o‘simlik qoplami va hayvonot dunyosiga ko‘rsatgan ta’siri baholangan hamda sug‘oriladigan hududlar 12 ta landshaftga ajratilgan.

Qashqadaryo viloyatida sug‘orish maqsadida foydalanilayotgan yer osti suvlarining sug‘orishga sarflanishi ushbu sug‘oriladigan maydonlarda yer osti suvlari gidrodinamik rejimining o‘zgarishiga sabab bo‘lmoqda. Mazkur maydonlar asosan viloyatdagi G‘arbiy Qashqadaryo hamda O‘ng qirg‘oq yer osti suv konlari hududlariga to‘g‘ri keladi.

Viloyat hududida olib borilgan gidrogeologik qidiruv ishlari natijasida yer osti suvlarining jami miqdori 1721,9 ming m³/sutka. Viloyat bo‘yicha 2018–2022-yillarda yer osti suvlarining tasdiqlangan zaxirasi 866,65 ming m³/sutka bo‘lsa-da, amalda olinayotgan suv hajmi o‘rtacha 1712 ming m³/sutkani tashkil qilgan. Bu esa bir qator konlarda tasdiqlangan zaxiralardan ortiqcha foydalanish holatlarini yuzaga keltirmoqda. Masalan, 2018–2022-yillarda Koson tumanida 1652 ta, Chiroqchi tumanida 1617 ta yakka tartibdagi ekspluatatsion quduqlar qazilib, foydalanilmoqda. Ushbu quduqlarning tartibsiz ishlatilishi hududlarda yer osti suvlarining gidrodinamik rejimiga salbiy ta’sir o‘tkazmoqda.

Viloyatda suv resurslaridan foydalanishni yuqorida ko‘rib chiqilganda shuni ko‘rish mumkinki, viloyat suv resurslarining shakllanishining qo‘shni daryo havzalariga bog‘liqligini anchayin yuqori. Masalan, Amudaryodan olinadigan suvlar misolida ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, bog‘lanish juda kuchli darajada ekanligi ma’lum bo‘ldi ($R^2 = 0,971$).

Viloyatda so‘nggi yillarda kuzatilayotgan iqlim o‘zgarishining ta’siri yaqqol sezilmoqda. Ya’ni viloyatda (2001–2024-yillarda) o‘rtacha yog‘inlar miqdori 250 mm dan 230 mm gacha kamaygan, o‘rtacha harorat esa 16,5 °C dan 17,2 °C gacha ortgan, viloyatda sug‘orish uchun ishlatilgan suvlar miqdori 5,5 ming m³ dan 4,5

ming m³ ga, viloyat kollektor tizimlaridagi oqim hajmi o‘rtacha suv sarfi 55–60 m/sek dan 30 m/sek ga qadar kamayganligini aniqlandi.

Viloyatda faoliyat olib boruvchi Amu-Qashqadaryo ITHB boshqarmasi ma’lumotlaridan ma’lum bo‘lishicha, viloyatda 2024-yilda umumiy yetkazib berilgan suvlar miqdori 3895,8 mln m³ ni tashkil etgan bo‘lsa, shundan 2955,4 mln m³ Amudaryodan, 245 mln m³ Zarafshondan, 534 mln m³ mahalliy daryolarda, 67,2 mln m³ yer osti suvlaridan va 94,2 mln m³ esa zovurlardan olingan.

Viloyat hududidagi sug‘oriladigan voha landshaftlarini tipologik jihatdan tavsiflashda hududning litologik tuzilishi, tuproq tiplari va tuproqlarning sho‘rlanish jihati asos qilib olingan.

Bu tasniflashda o‘simliklar dunyosi deyarli e’tibordan chetda qoldirilishining asosiy sababi sifatida bilamizki, viloyatning sug‘oriladigan hududlarida hozirgi kunda deyarli to‘liq o‘zlashtirilganligi evaziga antropogen landshaft to‘liq qoplanganligi sababli madaniy o‘simlik qoplami egallagan, bir hududning o‘simlik qoplami boshqa landshaft tiplari bilan deyarli farq qilmasligini inobatga olgan holda landshaft tiplarini ajratishda o‘simliklar dunyosi tarqalishi deyarli e’tibordan chetda qoldirildi (2-rasm).

Dissertatsiyaning **“Qashqadaryo viloyati sug‘oriladigan hududlarda vujudga kelgan ekologik-meliorativ vaziyatlarni baholash va ularni yaxshilash”** deb nomlangan uchinchi bobida viloyat landshaft-ekologik holatini zamonaviy metodlarni qo‘llash, baholash, viloyat sug‘oriladigan yerlarining meliorativ holati va unga ta’sir etuvchi omillar, suv-tuz balansi hamda kollektorlarning so‘ngi yillardagi suv hajmi va minerallashuvi tahlil etilgan bo‘lib, viloyat sug‘oriladigan hududlari landshaft-ekologik jihatdan baholangan.

So‘nggi yillarda iqlim o‘zgarishi, o‘simlik qoplamining antropogen transformatsiyasi, yerdan foydalanish va yer fondining turlar tarkibidagi o‘zgarishlar haqida masofadan zondlashni qo‘llash hozirgi vaqtda zamonaviy tadqiqot usullaridan eng samarali yo‘l hisoblanadi.

Masofadan zondlash ma’lumotlari asosida 2017-2024-yillar oralig‘ida Qashqadaryo viloyati hududida yer qoplamasining asosiy turlari bo‘yicha aniq miqdoriy va sifat o‘zgarishlari aniqlangan. Tahlil natijalari hududda tabiiy jarayonlar bilan bir qatorda antropogen omillar ta’sirining kuchayganini, ayniqsa ekologik muvozanatga ta’sir etuvchi o‘zgarishlar sodir bo‘lganini ko‘rsatadi (1-jadval).

1-jadval.

Qashqadaryo viloyati yer qoplami kartasi tahlili (2017-2024 yillar)

Yer turlari	Maydoni, ga	
	2017-yil	2024-yil
Suv havzalari	15488.40	18801.52
O`rmon(yoki daraxtzor) maydonlar	3511.71	4682.69
Daryo bo`yi to`qayzorlari	1218,72	112,61
Ekin maydonlari	805813,03	740176,65
Aholi punktlari	173082,11	214715,05
“Ochiq yerlar” (Yalang yerlar)	130693,82	66336,93
Yaylovlar	1668418,25	1752764,88
Qor va muzliklar	1124,75	1616,16

Jadval Sentinel-2 ma’lumotlar asosida muallif tomonidan hisoblandi.

Qarshi shahrida 1990-yilda chang miqdori 1,825 mg/m³, azot dioksidi esa 1,973 mg/m³ va AII (Atmosfera ifloslanish indeksi) 3,8 ni tashkil etgan. Ushbu ko‘rsatkich keyinchalik kamayib borgan. 2000-yilda AII 1,67, 2013-yilda 1,32 va 2024-yilda 0,68 ni tashkil etgan. Muborak shahrida esa 2000–2024-yillar oralig‘ida AII 0,32–0,71, Shahrisabz shahrida biroz ko‘proq 0,78–1,56, Kitobda 0,86–1,53 oralig‘ida o‘zgarib boradi. Yuqorida tahlil etilgan 4 ta shaharda keyingi yillarda atmosferadagi zararli ingrediyent miqdori kamaygan.

Qashqadaryo daryosi suvining ifloslanishi Qashqadaryo viloyatida muhim ekologik muammodir. Ushbu daryo suvi viloyat aholisi ichimlik suvining muhim manbai hisoblanadi. Viloyat aholisining tez sur’atlar bilan o‘sishi, ayniqsa, shaharlarda sanoat, irrigatsiya, baliqchilik, uy-ro‘zg‘or va boshqa maqsadlarda suvga bo‘lgan talabning ortishi suv ta’minoti muammolarini keltirib chiqardi. Suvning ifloslanishi oqibatida suv sifatining pasayishi jiddiy muammoga aylanib bormoqda (2-jadval).

2-jadval.

Aholini suvdan foydalanish joylarida suv obyektlari holatining nazorati (2020-2024 yy.)

Suv obyektlari	2020		2021		2022		2023		2024	
	Na’muna soni	Normativga javob bermaydi	Na’muna soni	Normativga javob bermaydi	Na’muna soni	Normativga javob bermaydi	Na’muna soni	Normativga javob bermaydi	Na’muna soni	Normativga javob bermaydi
1-toifa suv havzalari	54	4	86	20	107	30	86	25	132	15
2-toifa suv havzalari	24	12	10	9	151	55	134	42	197	60
Suv omborlari	3	3	4	2	3	3	-	-	5	-
Tozalash inshooti (oqova suv)	20	4	32	14	32	15	49	29	108	104

Jadval Qashqadaryo viloyati sanitariya-epidemiologiya osoyishtalik va jamoat salomatligi (SEO va JS) qo‘mitasi ma’lumotlari asosida tuzildi.

Mustaqillik yillarida sho‘rlangan yerlarning dinamikasi quyidagicha o‘zgardi. Ya’ni 1990-yilda viloyatda sho‘rlanish darajasi 46 % ni tashkil etgan bo‘lsa, eng yuqori darajada sho‘rlanishga uchragan yerlar 2005-yilda 240 ming ga yoki umumiy sug‘oriladigan yerlarning 49 % bo‘lsa, 2024-yilda 219,49 ming ga yoki 43 % ga qadar kamaydi. Biroq sho‘rlangan yerlarning sho‘rlanish darajasi turlicha holda uchramoqda (3-jadval).

3-jadval.

Qashqadaryo viloyati sug‘oriladigan yerlarining tuproq sho‘rlanish darajasi ming ga(1990-2024 yillar)

Yillar	Sug‘oriladigan yerlar hajmi ming, ga	Sho‘rlanmagan	Kuchsiz sho‘rlangan	O‘rtacha sho‘rlangan	Kuchli va juda kuchli sho‘rlangan
1991	485,80	266,86	156,81	34,09	28,74
	100%	54,93%	32,28%	7,02%	5,92%
2010	514,84	272,04	180,56	48,91	13,33
	100%	52,84%	35,07%	9,50%	2,59%
2024	513,49	294,00	176,01	34,76	8,72
	100%	57,26%	34,28%	6,77%	1,70%

Jadval Amu-Qashqadaryo ITHB huzuridagi Meliorativ-ekspeditsiyasi boshqarmasining kadastr ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Qashqadaryo viloyati sug‘oriladigan yerlarida 1990–2024-yillar oralig‘ida sizot suvlarining sathi sezilarli darajada o‘zgarishga uchragan. 1990-yilda 0–2 metr chuqurlikda joylashgan sizot suvlarining maydoni 28,97 ming gektarni tashkil etgan bo‘lib, bu umumiy sug‘oriladigan yerlarning 5,95 foiziga teng edi. Ushbu ko‘rsatkich 2024-yilga kelib atigi 1,27 ming gektarga (0,24 %) tushgan.


Bu o‘z navbatida, yuqori sizot suv yer yuzasiga yaqin bo‘lgan hududlarning qisqarib, meliorativ holatning yaxshilanganini ko‘rsatadi. O‘rtacha chuqurlikdagi (2–3 m) sizot suvli maydonlar 1990–2010-yillarda kengayib, 208,4 ming gektarga (40,5 %) yetgan bo‘lsa, 2024-yilda bu ko‘rsatkich 76,9 ming gektarga (14,9 %) kamaygan (1-rasm).

Qashqadaryo havzasidagi kollektor tizimlarining mineralizatsiyasi o‘zining boshqa daryo havzalardan keskin ajralib turuvchi sifatlari va xususiyatlari bilan farqlanadi. Qashqadaryo viloyatida to‘rtta asosiy magistral — Janubiy (JK), Shimoliy (SHK), Bosh, Killisoy kollektorlari mavjud. Ushbu kollektorlar orqali sug‘oriladigan maydondan mineralizatsiyasi 5,13–6,44 g/l bo‘lgan umumiy hajmi 0,88–1,3 km³ gacha suv oqib chiqadi. Kollektor-zovur suvlarining eng katta hajmi Mirishkor tumanida – 0,15 km³ (mineralizatsiyasi 5,4 g/l), eng kichigi Kitob tumanida 0,002 km³ (mineralizatsiyasi 0,55 g/l) kuzatilgan.

Viloyat kollektor suvlarining keyingi yillarda kamayish xususiyatiga ega bo‘lmoqda, 2016–2020-yillar oralig‘ida 1,339 km³ dan 0,81 km³ gacha. Eng katta suratlarda kamayish viloyatning asosiy sug‘oriladigan yerlari band etadigan tekislik tumanlari – Mirishkor, Muborak, Qarshi, Koson, Kasbi tumanlarida o‘ta keskin kamayish miqdoriga ega bo‘lgan. Shu masalaga bog‘liq holda kollektor tizimlarining mineralizatsiya miqdor esa sezilarli darajada ortdi, 4,65 g/l dan 5,23 g/l gacha, 2023-yilda esa 5,6 g/l miqdorgacha yetganligini ushbu yilda oqim miqdorining 0,5 km³ ga qadar kamayganligiga bog‘liq hisoblanadi.

Viloyat sug‘oriladigan hududlarning ekologik holatiga ta’sir etuvchi asosiy omillar o‘zgarishining korrelyatsion aloqadorligi aniqlangan (4-jadval). Korrelyatsion tahlil natijalariga ko‘ra, viloyat sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatining shakllanishida suv resurslari hajmi, kollektor-drenaj tizimi va uning, minerallashuv darajasi hamda viloyatda suv-tuz balansi ko‘rsatkichlari o‘rtasida yaqin statistik bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatdi. Xususan, kollektorlarning o‘rtacha suv sarfi bilan kollektor suv hajmi hamda suv-tuz balansining chiqim qismi orasida juda yuqori musbat korrelyatsiya aniqlanib, drenaj jarayonlari hududning landshaft-ekologik holatini shakllantiruvchi asosiy omillardan biri ekanligi isbotlandi. Qolaversa, viloyatning o‘rtacha harorati va suv resurslarining minerallashuv darajasi ayrim suv omillari bilan teskari holda bog‘liqlik hosil qilishi vujudga kelgan ekologik jarayonlarning murakkab va o‘zaro ta’sirchan xususiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Viloyat sug‘oriladigan landshaftlarining ekologik holatini baholashda dastlabki qilinadigan ish – bu har qanday landshaftning fundamenti bo‘lgan tog‘ jinslarini ekologik jihatdan baholash maqsadga muvofiqdir.



1-rasm. Qashqadaryo viloyati sug'oriladigan landshaftlarning sizot suvlari sathi va minerallashuv holati kartasi

4-jadval.

Qashqadaryo viloyati sug‘oriladigan landshaftlardagi ekologik holatiga ta’sir etuvchi omillarning korrelyatsion aloqadorligi

Omillar	Yog'in, mm	O'rtacha harorat	Suv resurslari ming metr kub	Kollektorlarning o’rtacha suv sarfi m/sek	Kollektor suvlar hajmi ming m^3,	Kollektor suvlar mineralizatsiyasi g/l,)	Suv-tuz balansi			
							Kirim qismi		Chiqim qismi	
							suv hajmi ming m^3	umumiy tuz miqdori ming tonna	suv hajmi ming m^3	umumiy tuz miqdori ming tonna
Yog'in, mm	1	-0,3225	0,14885	0,45081	0,45291	-0,1934	0,420201	0,298584	0,4541	0,508716
O'rtacha harorat	-0,3225	1	-0,4037	-0,51056	-0,5124	0,37847	-0,344245	-0,354804	-0,5087	-0,5266
Suv resurslari ming metr kub	0,14885	-0,4037	1	0,56944	0,56916	-0,4371	0,373215	0,510248	0,5672	0,532142
Kollektorlarning o’rtacha suv sarfi m/sek	0,45081	-0,5106	0,56944	1	0,99995	-0,6125	0,856374	0,852078	0,9998	0,966326
Kollektor suvlar hajmi ming m^3,	0,45291	0,4529	0,56916	0,99995	1	-0,6131	0,856399	0,852249	0,9999	0,96722
Kollektor suvlar mineralizatsiyasi g/l,)	-0,1934	0,3785	-0,4371	-0,61254	-0,61306	1	-0,610817	-0,709193	-0,6133	-0,43456
Kirim, suv tuz-balansi, suv hajmi ming m^3	0,4202	-0,3442	0,37321	0,85637	0,8564	-0,6108	1	0,897165	0,8577	0,802904
Kirim, suv-tuz balansi, umumiy tuz miqdori, ming tonna	0,29858	-0,3548	0,51025	0,85208	0,85225	-0,7092	0,897165	1	0,8516	0,74558
Chiqim, suv-tuz balansi, suv hajmi ming m^3	0,45412	-0,5087	0,5672	0,99984	0,99987	-0,6133	0,857744	0,851572	1	0,96687
Chiqim, suv-tuz balansi, umumiy tuz miqdori ming tonna	0,50872	-0,5266	0,53214	0,96633	0,96722	-0,4346	0,802904	0,74558	0,9669	1

Jadval muallifning hisob-kitoblari asosida tuzildi.


Hududning litologik asosi qanchalik darajada mustahkam bo‘lsa, tashqi ta’sirlarga chidamligi yuqori bo‘ladi va bu esa ushbu yerlarda eroziya, karst, surilma va boshqa jarayonlarning sodir bo‘lish ehtimolliligini pasaytiradi.

Ushbu turdagi landshaftlarning ekologik holatini baholash uchun quyidagi tabiat komponentlari tanlab olindi, ya’ni ekzogen jarayonlar (surilma, suffoziya, suv va irrigatsiya eroziyasi, deflyatsiya), yer usti va yer osti suvlarining ifloslanishi, kollektor-zovur suvlarining minerallashuvi, ichimlik suvlarida umumiy qoldiq miqdori va qattiqlik darajasi, atmosfera havosining ifloslanishi, tuproqning og‘ir metallar va boshqa kimyoviy mahsulotlar bilan ifloslanishi, tuproqning sho‘rlanish darajasi, sizot suvlari sathi, sizot suvlarning minerallashuvi va meliorativ baholanishi darajasi asosiy mezon bo‘lib xizmat qiladi va hududda ajratilgan 12 ta landshaft turlari o‘zining ekologik holatiga qarab **qulay, o‘rtacha qulay, noqulay** va **juda noqulay** ekologik vaziyatdagi landshaftlar ajratildi (2-rasm).

Qulay ekologik vaziyat tarkib topgan landshaftlarda:

Ushbu landshaft turlarida **qulay** ekologik shart-sharoit vujudga kelishida asosan tashqi ekzogen va antropogen jarayonlar kuchli ta’sir etgan, daryo bo‘yi hududlarining o‘zlashtirilishi jadallashgan, meliorativ holati barqaror bo‘lgan, tuproq sho‘rlanishi yo‘q yoki kuchsiz holda, daryo va kollektor suvlarining minerallashuvi 1 g/l dan kam bo‘lgan, yer osti suvlarining gidrokimyoviy tarkibi ichish va sug‘orish uchun yaroqli bo‘lgan hududlardagi **I** turdagi landshaftlar kiradi.

Bu turdagi qulay ekologik vaziyat tarkib topgan landshaftlarning egallagan maydoni viloyat sug‘oriladigan hududlarining 3,3 foizini tashkil etib, to‘liq Ko‘kdala tumani sug‘oriladigan yerlarini egallaydi.



